

## **“O‘ZBEKKO‘MIR” AKSIYADORLIK JAMIYATINING OCHIQLIK SIYOSATI: AMALDAGI HOLAT VA TAKLIFLAR**

“O‘zbekko‘mir” AJda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash yo‘nalishida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, jamiyatning rasmiy veb-sayti – [uzbekcoal.uz](http://uzbekcoal.uz) orqali yangiliklar, jamiyat faoliyatiga oid ma‘lumotlar, matbuot xabarlar va aloqa kanallari jamoatchilikka muntazam taqdim etib kelinmoqda. Shuningdek, murojaatlar bilan ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, fuqarolar va tashkilotlar tomonidan yuborilgan savol va takliflar belgilangan tartibda ko‘rib chiqilmoqda.

Shu bilan birga, ochiqlikni yanada takomillashtirish, axborotning tezkorligi va qulayligini oshirish maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jamoatchilik bilan muloqotni yanada kuchaytirish uchun matbuot xizmati orqali ijtimoiy tarmoqlarda tezkor javob berish amaliyotini kengaytirish zarur. Fuqarolardan kelib tushayotgan savol va murojaatlarga qisqa va tushunarli izohlar berib borish, dolzarb mavzular yuzasidan muntazam axborot tarqatish jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Rasmiy veb-saytda foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratish maqsadida eng ko‘p beriladigan savollar va ularga javoblarni o‘z ichiga olgan alohida bo‘limni joriy etish maqsadga muvofiq. Bu orqali fuqarolar kerakli ma‘lumotni tez va oson topishi mumkin bo‘ladi.

Jamiyat faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha qisqa va tushunarli infografik ma‘lumotlarni muntazam e‘lon qilib borish ham ochiqlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunda ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari, amalga oshirilayotgan loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar haqidagi ma‘lumotlar sodda shaklda taqdim etilishi ahamiyatlidir.

Shuningdek, ochiq ma‘lumotlar bazasini kengaytirish va uni muntazam yangilab borish, jamiyat faoliyatiga oid muhim ma‘lumotlarni jamoatchilik uchun yanada ochiq qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish “O‘zbekko‘mir” AJ faoliyatida ochiqlik va shaffoflik darajasini yanada oshirish, jamoatchilik bilan samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda kompaniyaning ijobiy imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.